


## IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 309,9 mln. AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 129,5 mln. AQSH dollarini-eksport, 180,4 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -50,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Tashqi sav do aylanmasi dinamikasi



(mln. AQSH dollari)

So‘ngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2023- yil yanvar-mart oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi**  
(mln. AQSH dollar va foizda)



**2022- yil yanvar-mart**



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

**2023- yil yanvar-mart**



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ga, MDH davlatlari 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 101,0 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 102,4 % ni va shundan MDH davlatlari 119,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 67,8 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 103,7 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 85,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 112,6 % ga ko'paygan.

**MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSH dollari)

|                               | yanvar-mart  |              | O'sish sur'ati, % da |
|-------------------------------|--------------|--------------|----------------------|
|                               | 2022- yil    | 2023- yil    |                      |
| <b>Tashqi savdo aylanmasi</b> | <b>300,4</b> | <b>309,9</b> | <b>103,2</b>         |
| <i>shu jumladan:</i>          |              |              |                      |
| MDH davlatlari                | 143,1        | 151,1        | 105,6                |
| Boshqa davlatlar              | 157,3        | 158,8        | 100,9                |
| <b>Eksport</b>                | <b>126,5</b> | <b>129,5</b> | <b>102,4</b>         |
| <i>shu jumladan:</i>          |              |              |                      |
| MDH davlatlari                | 85,4         | 101,6        | 119,0                |
| Boshqa davlatlar              | 41,0         | 27,8         | 67,8                 |
| <b>Import</b>                 | <b>173,9</b> | <b>180,4</b> | <b>103,7</b>         |
| <i>shu jumladan:</i>          |              |              |                      |
| MDH davlatlari                | 57,7         | 49,5         | 85,8                 |
| Boshqa davlatlar              | 116,3        | 130,9        | 112,6                |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

|   | Umumiy hajm<br><i>mln.AQSH.dollr</i> |                          | 2022- yil<br>yanvar-mart<br>oylariga<br>nisbatan % da |
|---|--------------------------------------|--------------------------|---|
|   | 2022- yil<br>yanvar-mart             | 2023- yil<br>yanvar-mart |   |
| <b>Eksport tarkibi</b>  | <b>126,5</b>                         | <b>129,5</b>             | <b>102,4</b>  |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar                                       | 13,3                                 | 14,5                     | 108,5   |
| Ichimliklar va tamaki   | 0,2                                  | 1,1                      | 5,4 m.  |
| Xom ashyo yoqilg'idan tashqari<br>nooziq-ovqat hisoblanadi          | 1,8                                  | 1,7                      | 96,0  |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari<br>va shunga o'xshash materiallar | 0,7                                  | 0,0                      | 0,0   |
| Kimyoviy moddalar va shunga<br>o'xshash mahsulotlar                 | 1,7                                  | 0,9                      | 52,4  |
| Sanoat mahsulotlari   | 78,8                                 | 66,5                     | 84,5  |
| Mashinalar va transport uskunolari                                  | 1,8                                  | 4,3                      | 2,3 m.  |
| Turli xil tayyor mahsulotlar  | 25,9                                 | 32,9                     | 127,0   |
| Xizmatlar   | 2,2                                  | 4,1                      | 192,3   |
| Boshqalar   | -                                    | 3,4                      | -   |
| <b>Import tarkibi</b>   | <b>173,9</b>                         | <b>180,4</b>             | <b>103,7</b>  |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar                                       | 21,6                                 | 30,5                     | 141,4   |
| Xom ashyo yoqilg'idan tashqari<br>nooziq-ovqat hisoblanadi          | 9,5                                  | 10,1                     | 107,2   |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari<br>va shunga o'xshash materiallar | 6,9                                  | 2,9                      | 41,9  |
| Hayvonlar va o'simlik moylari,<br>yog'lar va mumlar                 | 7,0                                  | 4,6                      | 65,4  |
| Kimyoviy moddalar va shunga<br>o'xshash mahsulotlar                 | 23,7                                 | 19,9                     | 84,1  |
| Sanoat mahsulotlari   | 39,2                                 | 42,3                     | 107,9   |
| Mashinalar va transport uskunolari                                  | 61,8                                 | 56,4                     | 91,3  |
| Turli xil tayyor mahsulotlar  | 4,3                                  | 4,8                      | 112,3   |
| Boshqalar   | -                                    | 8,8                      | -   |

2023- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2022- yilning tegishli davriga nisbatan), Ichimliklar va tamaki 5,4 m. ga, Mashinalar va transport uskunalari 2,3 m. ga ko'paygani kuzatildi.

### 2023-yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi yuqori ulushga ega davlatlar

(ming AQSH dollari)

| Davlatlar nomi        | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import  |
|-----------------------|------------------------|---------|---------|
| Rossiya Federatsiyasi | 100383,1               | 78519,2 | 21863,9 |
| Xitoy                 | 63818,5                | 8878,2  | 54940,4 |
| Qozog'iston           | 27471,3                | 11432,3 | 16038,9 |
| Turkiya               | 22678,1                | 4318,3  | 18359,8 |
| Germaniya             | 12815,3                | 1900,8  | 10914,5 |
| Polsha                | 11674,6                | 4834,0  | 6840,6  |
| Qirg'iziston          | 9605,5                 | 6873,0  | 2732,5  |
| Belorussiya           | 7649,2                 | 1038,6  | 6610,5  |
| Litva                 | 6360,0                 | 148,8   | 6211,2  |
| Koreya Respublikasi   | 5887,2                 | 1045,3  | 4841,9  |
| Hindiston             | 4545,2                 | 148,3   | 4396,9  |
| Italiya               | 3736,5                 | 533,9   | 3202,6  |
| Malayziya             | 3052,3                 | -       | 3052,3  |
| Frantsiya             | 2943,3                 | 27,3    | 2916,0  |
| Eron                  | 2248,4                 | 613,6   | 1634,8  |
| Avstriya              | 1750,2                 | 114,3   | 1635,9  |
| Ukraina               | 1673,8                 | 628,8   | 1045,1  |
| Tadjikistan           | 1597,1                 | 1356,4  | 240,8   |
| Afg'oniston           | 1513,7                 | 1513,7  | -       |
| Turkmaniston          | 1466,1                 | 936,2   | 529,9   |

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 56 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,4 %), Xitoy Xalq Respublikasida (20,6 %), Qozog‘istonda (8,9 %), Turkiyada (7,3 %), Germaniya (4,1 %), Polsha (3,8 %) va Qirg‘iziston (3,1 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

**2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar**

| Davlatlar nomi        | Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da |
|-----------------------|---------------------------------------|--|
| Rossiya Federatsiyasi | 32,4                                  | 120,3  |
| Xitoy                 | 20,6                                  | 70,7   |
| Qozog‘iston           | 8,9                                   | 122,8  |
| Turkiya               | 7,3                                   | 82,3   |
| Germaniya             | 4,1                                   | 2,2 m.                                       |
| Polsha                | 3,8                                   | 3,0 m.                                       |
| Qirg‘iziston          | 3,1                                   | 52,9   |
| Belorussiya           | 2,5                                   | 2,4 m.                                       |
| Litva                 | 2,1                                   | 118,0  |
| Koreya Respublikasi   | 1,9                                   | 124,6  |

| Davlatlar nomi | Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da |
|----------------|---------------------------------------|--|
| Hindiston      | 1,5                                   | 141,6  |
| Italiya        | 1,2                                   | 3,7 m.                                       |
| Malayziya      | 1,0                                   | 2,3 m.                                       |
| Frantsiya      | 0,9                                   | 165,9  |
| Eron           | 0,7                                   | 118,5  |
| Avstriya       | 0,6                                   | 8,5 m.                                       |
| Ukraina        | 0,5                                   | 33,1   |
| Tadjikistan    | 0,5                                   | 57,6   |
| Afg'oniston    | 0,5                                   | 194,7  |
| Turkmaniston   | 0,5                                   | 21,8   |

**2023- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari  
hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)**

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Ichimliklar va tamaki

■ Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari

■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar


■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunolari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar

■ Boshqalar



2023-yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan yengil sanoat ulushi 51,4 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 25,4 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 11,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 4 137,5 ming.AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 3,2 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 92,3 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

**2023- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari hajmi shahar va tumanlar kesmida**  
(ming AQSH dollari)


|                     | yanvar-mart      |                  | O'sish sur'ati,<br>% da |
|---------------------|------------------|------------------|-------------------------|
|                     | 2022- yil        | 2022- yil        |                         |
| <b>Viloyat jami</b> | <b>126 464,9</b> | <b>129 450,6</b> | <b>102,4</b>            |
| Namangan sh.        | 38 663,5         | 53 071,9         | 137,3                   |
| Mingbuloq           | 4 431,3          | 548,0            | 12,4                    |
| Kosonsoy            | 8 452,9          | 15 920,4         | 188,3                   |
| Namangan t.         | 6 592,6          | 5 723,0          | 86,8                    |
| Norin               | 7 132,2          | 2 037,8          | 28,6                    |
| Pop                 | 3 107,4          | 3 032,2          | 97,6                    |
| To'raqo'rg'on       | 21 150,9         | 20 799,6         | 98,3                    |
| Uychi               | 11 826,4         | 8 073,3          | 68,3                    |
| Uchqo'rg'on         | 10 322,0         | 7 478,5          | 72,5                    |
| Chortoq             | 720,3            | 342,5            | 47,6                    |
| Chust               | 10 336,6         | 8 559,4          | 82,8                    |
| Yangiqo'rg'on       | 3 586,2          | 3 414,1          | 95,2                    |

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 99,0 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 76,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 101,4 % ga o'sdi.



**2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat eksportida**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport xajmining 90,2 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg'iziston, Polsha, Turkiya, va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**2023- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari  
hajmi shahar va tumanlar kesmida**  
(ming AQSH dollari)

|                     | Yanvar–mart      |                  | O‘shish sur‘ati, %da |
|---------------------|------------------|------------------|----------------------|
|                     | 2022- yil        | 2022- yil        |                      |
| <b>Viloyat jami</b> | <b>173 934,1</b> | <b>180 414,7</b> | <b>103,7</b>         |
| Namangan sh.        | 66 309,7         | 95 183,3         | 143,5                |
| Mingbuloq           | 2 765,5          | 1 641,7          | 59,4                 |
| Kosonsoy            | 14 013,3         | 4 971,0          | 35,5                 |
| Namangan t.         | 14 334,4         | 7 169,4          | 50,0                 |
| Norin               | 9 919,9          | 13 630,8         | 137,4                |
| Pop                 | 4 130,1          | 5 715,4          | 138,4                |
| To‘rao‘rg‘on        | 8 007,4          | 14 527,6         | 181,4                |
| Uychi               | 13 976,8         | 12 238,5         | 87,6                 |
| Uchqo‘rg‘on         | 2 386,5          | 2 143,2          | 89,8                 |
| Chortoq             | 9 535,6          | 6 670,2          | 70,0                 |
| Chust               | 20 361,4         | 10 788,1         | 53,0                 |
| Yangiqo‘rg‘on       | 8 193,6          | 5 691,0          | 69,5                 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2023- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 31,3 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 23,5 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 16,9 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi esa 11,0 % ni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi

■ Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar

■ Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar


■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar

■ Sanoat mahsulotlari

■ Mashinalar va transport uskunalari

■ Turli xil tayyor mahsulotlar

■ Boshqalar



### 2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2022- yil yanvar-mart oylarida viloyatga 59 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Polsha va Belarusiya kabi xamkor davlatlarning jami import hajmi 135 568,6 ming AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 75,1 % ni tashkil qiladi.

